

## KORXONA VA TASHKILOTLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATINING TUTGAN O'RNI

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 212-guruh kursanti*

*Mamadjonov Qobuljon Qosimjon o'g'li*

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 209-guruh kursanti*

*Umarxo'jayev Asadbek Shuxratjon o'g'li*

*Ilmiy rahbar – mayor Isroilov Jamshid Dilshodovich, IIV Akademiyasi  
boshlig'ining Axborot texnologiyalari bo'yicha o'rinbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot tushunchasi, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligining muhimlik darajasi, axborotni himoya qilishning yo'nalishlari va turlari kabi tushunchalar bayon etilgan. Axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy asoslari talqin etilgan

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot xavfsizligi, axborotni himoya qilishning yo'nalishlari, axborotni himoya qilish turlari, axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli.

## ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ И ОРГАНИЗАЦИЙ РОЛЬ ПОЛИТИКИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ПРЕДОСТАВЛЕНИИ

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены такие понятия, как понятие информации, информационный риск, уровень важности информационной безопасности, направления и виды защиты информации. Разъяснены современные основы обеспечения национальной безопасности в сфере информации.

**Ключевые слова:** информация, информационная безопасность, направления защиты информации, виды защиты информации, метод духовно-просветительской защиты информации.

## INFORMATION SECURITY IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS ROLE OF INFORMATION SECURITY POLICY IN PROVIDING

**Annotation:** This article describes concepts such as the concept of information, information risk, the level of importance of information security, directions and types

of information protection. The modern foundations of ensuring national security in the field of information are explained

**Key words:** information, information security, directions of information protection, types of information protection, method of spiritual and educational protection of information.

Bizga ma'lumki, "Axborot" atamasi bir necha asrlik tarixni o'z ichiga oladi. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kun axborotlari tarixda mavjud axborotlardan keskin farq qiladi. Axborot chegara tanlamaydi, virtual to'siqlarni tan olmaydi. Bugun butundunyo hamjamiyatida axborot nafaqat shaxslar, balki korxonalar, tashkilotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrga kelib axborot tushunchasiga bo'lgan qarashlar o'zgarib, bugungi kun tashkilot va korxonalari axborotni o'zining moddiy boyligi sirasiga qo'shishga odatlanib boshlashdi. Shunday ekan axborotni ishonchli himoyasini ta'minlash korxonalar tashkilotlar oldida turgan asosiy masalaga aylanib bormoqda. Bu masalaning yechimi sifatida korxonalarda axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va uni amalga joriy etish kelib chiqayotgan muammolarni samarali yechish imkoniyatini beradi. Axborot xavfsizligi siyosati batafsil spetsifikatsiyalarsiz umumiy atamalarda xavfsizlikni ta'minlaydi. U xavfsizlikni ta'minlashning hamma dasturlarini rejalashtirishni ta'minlab beradi. Axborot xavfsizligi siyosati tashkilot vazifalarini bajarilishi himoyasini yoki ish jarayonini himoyasini ta'minlab berishi shart. Ruxsat etilmagan kirishdan axborotni ishonchli himoyalash muammosi eng ilgari tadan mavjud va hozirgi vaqtgacha hal qilinmagan. Maxfiy xabarlarini yashirish usullari qadimdan ma'lum, inson faoliyatining bu sohasi stenografiya degan nom olgan. Bu so'z grekcha Steganos (maxfiy, sir) va Graphy (yozuv) so'zlaridan kelib chiqqan va «sirli yozuv» degan ma'noni bildiradi. Stenografiya usullari, ehtimol, yozuv paydo bo'lishidan oldin paydo bo'lgan (dastlab shartli belgi va belgilashlar qo'llanilgan) bo'lishi mumkin.

Global kompyuter tarmoqlari va mul'timedia sohasidagi zamonaviy progress telekommunikatsiya kanallarida ma'lumotlarni uzatish xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan yangi usullarni yaratishga olib keldi. Bu usullar shifrlash qurilmalarining tabiiy noaniqligidan va analogli video yoki audiosignallarning serobligidan foydalanib xabarlarini kompyuter fayllari (konteynerlar)da yashirish imkonini beradi. Shu bilan birga kriptografiyadan farqli ravishda bu usullar axborotni uzatish faktining o'zini ham yashiradi.

Ish jarayonini (biznes-jarayonni) xavfsizligini ta'minlash vositalari xavfsizlik siyosati qamrab olishi shart bo'lgan apparat vositalari va dasturiy ta'minot hisoblanadi. Shu sababli asosiy vazifa sifatida axborot kommunikatsion tizimni va tarmoq arxitekturasini qo'shgan holda inventarizatsiyalash yoki hisobga olish lozim. Tarmoq arxitekturasini tuzayotganda har bir tizimda axborot oqimini aniqlash lozim. Axborot

oqimini sxemasi, axborot oqimini qanchalik biznes jarayonni ta'minlayotganini, hamda axborot himoyasi ta'minlanishi muhim bo'lgan va yashovchanligini ta'minlash uchun qo'shimcha choralarni qo'llash kerak bo'lgan sohalarni ko'rsatadi. Undan tashqari bu sxema yordamida axborotlarni qayta ishlash, qanday saqlash, ro'yxatdan o'tkazish, nusxa kuchirish, joyini o'zgartirish va nazoratlash uchun kerak bo'lgan joylarini aniqlab olish mumkin.

Xavfsizlik siyosati har doim tashkilotning taraqqiy etishi bilan rivojlantirilishi va takomillashtirilishi shart. Buning uchun qoidalarni davriy ravishda qayta ko'rib chiqish lozim. Xavfsizlik siyosatini qaytadan ko'rib chiqish metodlaridan biri bo'lib, axborot kommunikatsion tizimlar auditi hisoblanadi. Xavfsizlik siyosati qoidalarini qancha vaqtda qayta ko'rib chiqish bo'yicha aniq bir ko'rsatma mavjud emas. Biroq xavfsizlik siyosati qoidalarini qayta ko'rib chiqish muddati olti oydan bir yilgacha belgilanishi tavsiya etiladi.

Bizga ma'lumki eng xavfli axborotga tahdid kiber- jinoyatchilikda o'z aksini namoyon etadi. Shu sababli, avvalo, kiberjinoyatchilik tushunchasining asl ifodasini topishimiz maqsadga muvofiqdir.

Kiberjinoyatchilik nisbatan yangi tushuncha bo'lsada, ko'plab davlatlar iqtisodiyotiga qimmatga tushayotgan muammo. Jinoyat quroli – internet va eng so'nggi raqamli texnologiyalar. Mamlakatning harbiy, strategik tarmoqlarini ishdan chiqarish salohiyatiga ega. Buzg'unchi-xakerlarni topib jazolash esa oson ish emas, chunki ular davlatdan doimo bir qadam oldinda. Bugungi hayotni zamonaviy texnologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Uyali aloqa va internet dunyosidagi so'nggi kashfiyotlar uzoqni yaqin, og'irni yengil, biznes imkoniyatlarni esa kengaytirgan. Biroq bu qulayliklar boshqa bir sohaga e'tibor qaratmoqda. Kiber-xavfsizlik har bir davlat uchun strategik masala. Avval asosan davlat sirlari va yuqori texnologiyalar nishonga olingan bo'lsa, hozir jinoyatchilar mo'ljalni kengroq olmoqda, deydi AQSh Federal Qidiruv Byurosi (FBR) rahbari Robert Myuller.

“Google qidiruv tizimiga bo'lgan hujumlardan bilamizki, nafaqat hukumatlar, balki xususiy kompaniyalar ham bu tahdid oldida ojiz. Global iqtisodiy integratsiya bizga ko'p eshiklarni ochib berdi, jinoyatchilarga esa yangi imkoniyatlarni”, - deydi Myuller.

Buning ustiga, o'tgan yillar ichida himoya texnologiyalari bobida uncha yangilik bo'lgani yo'q. Internet – xakerlar uchun cheksiz imkoniyatlar dunyosi. “Vaziyat juda murakkab. Hisoblarga ko'ra o'tgan yili Amerika bizneslari qariyb bir trillion dollarga teng intellektual mulkidan ayrilgan. Internet sekinligi, eski texnologiyalar ham katta muammo”.

Ushbu yuqoridagi holatlarning barchasi tashkilotlar va yirik korxonalarining o'z faoliyatlariga katta xavf va tahdid solib kelmoqda. Shuningdek, bugungi davr insonlari ongidagi internet erkinligi tushunchasi kiberjinoyatchilar uchun aynimuddao

bo'lmoqda. Har bir shaxs undan axborot olish huquqiga ega. Oqni qoradan ajratish xalqning o'ziga havola, ammo hamma uchun internetga kirish imkoniyati yaratib berilishi kerak, degan siyosat olg'a surilmoqda. Bu holat xalqaro miqyosda ham va, albatta, Respublikamiz miqyosida ham, qonunchiliklarimizda ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat hatto yirik davlatlar kompaniyalarida ham mavjud muammo ekanligining guvohi bo'lamiz.

Amerikaning yirik internet kompaniyasi *Google* va Xitoy hukumati o'rtasida kechayotgan bahslar mavzusi ham shu. Kompaniya senzura va kiber-xurujlardan shikoyat qilib, Xitoydagi idorasini yopishga qaror qilgan. Har bir kompaniya, deydi Xitoy rasmiylari, mahalliy qonunlarga bo'ysunishi shart. Rasmiy Pekin nazarida Amerika hukumati ham butun dunyoga erkinlik haqida jar solib, o'z qarashlarini boshqalarga o'tkazish harakatida. Lekin osiyoshunos olimi Rebekka Makkinon tahlil qilishicha:

“Internetda xitoyliklar orasida bo'layotgan suhbatlarni kuzatsangiz, aniq bir xulosaga kelasiz: Internetdan foydalanuvchilar *Google* bilan juda yaxshi tanish. Kompaniya AQShda joylashganini hamma biladi. Xitoyda Amerika tashqi siyosatini tanqid qiladiganlar ko'p, lekin internetga kirib-chiqib yurganlar *Google*-dan har kuni foydalanadi, kompaniyaning hurmati bor”. *Google* Xitoy bozorida yuzlashayotgan muammolar sabab, deydi tahlilchi Stiven Yeyts, internet erkinlikligi yuzasidan bahs-munozara qizimoqda. “Xitoyda huquq oyoq osti bo'layotgani, hukumat fuqarolar hayotini to'la nazorat qilishga urinishi yangilik emas. Masala boshqa bir jihati bilan muhim. Hukumat buni tushunib, bila turib, qilayotgani yanada ayonlashdi. Rasmiy Pekin buni istamagan edi”, - deydi Yeyts.

Tahlilchilar fikricha, Amerika bosimi ostida avtoritar rejimlar internet eshiklarini qattiqroq yopsa ajabmas. Lekin, deydi Rebekka Makkinon, har narsaning chegarasi bor. Eng mustahkam qulflar ham buziladi.

Axborot xavfsizligi siyosatini aniqlash qo'yidagi amaliy qadamlarga olib kelishi kerak:

1. Axborot xavfsizligi sohasida foydalaniladigan boshqaruv hujjatlari va standartlarini, hamda axborot xavfsizligi siyosatini asosiy nizomlarini aniqlash, ya'ni:

- axborot kommunikatsion tizim vositalari, dasturlar va ma'lumotlardan foydalanishni boshqarish;

- virusga qarshi himoya;

- zahirali nusxa olish masalalari;

- ta'mirlash va qayta tiklash ishlarini o'tkazish;

- axborot xavfsizligi sohasidagi intsedent (to'qnashuvlar) haqida xabardor qilish.

2. Qaltis vaziyatlarga yondashishlarni aniqlash, ya'ni himoyalanganlikni

bazoviy sathi yetarli ekanligini yoki qaltis vaziyatlarni tahlil qilishni to'liq variantini o'tkazish talab etilayotganligini.

3. Axborot xavfsizligiga bo`lgan talablarni aniqlash.
4. Sathlar bo`yicha qarshi choralarni strukturizatsiyalash.
5. Axborot xavfsizligi sohasida standartlarga mos sertifikatlar tartibini aniqlash.

Ushbu soha bo`yicha mutaxassislar yaqin yillar ichida haqiqiy dunyoning kompyuter modelini, shunday virtual tizimni yaratish imkoniyatlari to`g`risida fikr bildirlarki, unda biz faol yashashimiz va virtual jismlar bilan turli murakkab harakatlarni bajarishimiz mumkin. Bundan hayol qilinadigan dunyoning eng oddiy timsoli hozirdayoq murakkab kompyuter o`yinlarida mavjuddir. Lekin kelgusida gap o`yinlar to`g`risida emas, balki bizning kundalik hayotimizning virtual haqiqiyliги to`g`risida ketadi, unda bizning atrofimizda, masalan, ehtiyojga qarab avtomatik ulanadigan va uziladigan, joylashgan joyimizni faol kuzatib boradigan, doimo, vaziyatga qarab, zarur ma`lumotlar bilan ta`minlaydigan, ma`lumotlarimizni faol qabul qiladigan va ko`plab maishiy asboblarni va qurilmalarni boshqaradigan yuzlab kompyuter qurilmalari o`rab turadi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta`minlash bilan bog`liq qator yechilmagan muammolar mavjud. Global axborot tarmog`i Internetning foydalanuvchilari bu tarmoqning bilimlar saqlanadigan joyidagi deyarli istalgan maxfiy bo`lmagan ma`lumotni olishlari mumkin. Global tarmoqda ma`lumotlar almashishining multikanalli keng polosali radio, optik tolali, to`g`ridan ko`rish oralig`ida esa infraqizil kanallarning birgalikda ishlatilishi deyarli cheklanmagan o`tkazish qobiliyatini ta`minlaydi. Transfer sekundiga million baytlardan oshib ketadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining axborot ta`minotini jadallashuvi, tezkor vaziyatni tavsiflovchi, ishonchli ma`lumotlarni muntazam yig`ib borilishi, uning o`z vaqtida va sifatli tahlil qilinishi hozirgi sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishning muhim shartlaridan bir hisoblanadi. Axborot jarayonlarini avtomatlashtirish kompyuter texnikasini joriy etishga, ma`lumotlarni yig`ish, saqlash, qayta ishlash va uning asosida ma`lumotlarni berish avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishga bevosita bog`liqdir. Huquqni muhofaza qilish faoliyati axborot ta`minotining jadallashtirish masalasini muvaffaqiyatli hal etish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko`nikmalariga ega kadrlar tayyorlash talab etiladi. Yuksak axborot madaniyati faqat chuqur maxsus bilimlar orqali ta`minlanadi.

Bugungi kunda inson shunchaki bitta tugmani bosish orqali e-mail, audio yoki video orqali har qanday ma`lumotni uzatish yoki qabul qilish imkoniyatiga ega, lekin u ma`lumotni qay darajada xavfsiz almashilinmoqda yoki boshqa insonga axborot qanchalik xavfsiz yetib borayotganligi haqida hech o`ylab ko`rganmikan? Bu savolning javobi kiber xavfsizlikda yotadi. Hozirda internet har kunlik hayotning eng tez o`sayotgan infratuzilmasidir. Hozirgi texnika dunyosida eng so`nggi texnologiyalar inson yashash tarzini o`zgartirib yubormoqda. Lekin yangi chiqayotgan texnologiyalar

tufayli biz axborotimizni eng samarali yo'l bilan ham xavfsiz saqlay olmaymiz va shuning uchun kiber jinoyatlar kundan-kunga ko'payib bormoqda. Hozirda 60% dan ortiq moliyaviy kelishuvlar internet orqali amalga oshiriladi, shuning uchun bu soha katta miqdordagi kelishuvlar uchun eng yaxshi sifatli xavfsizlikni talab qiladi. Kiber xavfsizlikning ko'lami faqatgina axborot texnologiyalari sanoatida axborotni himoyalash emas, balki kibermakon kabi boshqa ko'pgina turlarga bo'linadi. Kiber jinoyat kompyuterda o'g'irlik va jinoyatda asosiy qurol qilib olgan har qanday noqonuniy harakatdir.

Ushbu rivojlanib borayotgan kiberjinoyatchilik yuqoridagi asosiy mavzuyimiz bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy faoliyatiga to'qinlik qilib kelmoqda. Shu sababli ham ushbu sohadagi siyosat tashkilot va korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib kelmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda asosiy vazifa sifatida axborot kommunikatsion tizimlar xavfsizligini ta'minlashda axborot xavfsizligi siyosati va uni amalga tatbiq etish hisoblanadi. Shu sababli tashkilotlarda axborot himoyasini ta'minlashda axborot xavfsizligi siyosati muhim chora-tadbirlarni belgilab beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Otamuratov S. Globallasuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. –T.: 2013.
2. Жуманиёзов Х., Собирова М., Нигманова У. Глобалласув асослари. –Т.: 2015.
3. Karimov M., Turgunov A. va boshqalar. Axborot xavfsizligi asoslari. –T.: 2013.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Аxbоротномаси. –Т.: 2003. – № 1. -2-м.
5. Алоқа ва аxbоротлаштириш соҳасида аxbорот хавфсизлиги: атамалар ва таърифлар. Тармоқ стандарти: –TSt 45-010.: 2010.
6. О'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. -Т.: Davlat ilmiy nashiryoti, 2000.
7. Гаффарова Г. Аxbорот ва аxbоротлаштириш жараёнларининг фалсафийметодологик муаммолари. Фалс. фан. номз. ...дис. –Тошкент, 2008.